

SHAHZODA IVAN va BO'Z BO'R!




00-3
Jh-34



SHAHZODA IVAN VA BO'Z BO'RI



«DAVR NASHRIYOTI»
TOSHKENT - 2013



Qaysidir podshohlik, qaysidir davlatda bir podsho yashagan ekan.

Uning uchta: shahzoda Dmitriy, shahzoda Vasiliy va shahzoda Ivan degan o‘g‘li bor ekan. O‘sha podshoning bog‘i bo‘lib, unda bir olma daraxti o‘sarkan. Daraxtning olmalari oltindan ekan.

Boqqa qaqnus oralab oltin olmachalarni uzib keta boshlabdi.

Shoh o‘g‘illarini huzuriga chorlab:

– Aziz bolalarim! Qaysi biringiz qaqnus qushni tuta olasiz? Kimda kim qushni tutsa, unga butun podsholigimni beraman, – debdi.


Birinchi kecha olma daraxtini shahzoda Dmitriy qo‘riqlabdi. U daraxt tagiga o‘tirishi bilan uxlab qolib, qaqnusning uchib kelganini sezmay qolibdi.


Ikkinci kecha shahzoda Vasiliy boqqa jo‘nabdi. Uni ham uyqu eltib, qaqnusning olmalarni uzganini payqamay qolibdi. Navbat shahzoda Ivanga kelibdi. U daraxtni bir soat poylabdi, ikki soat poylabdi. Yarim kechada bog‘ charog‘on bo‘lib ketibdi. Qaqnus uchib kelib, daraxtdagi olmachalarni uza boshlabdi.


Shahzoda Ivan sezdirmay borib uning dumidan ushlab



ГДВ Узбекистан
338736







olibdi, biroq qaqnus shahzodaning qo'lida bitta patini qoldirgancha uchib ketibdi.

Tongda shahzoda Ivan podshoga qaqnusning patini olib borib beribdi.

Podsho hayratga tushib, o'g'illariga qaqnusni tiriklayin, ziyon-zahmat yetkazmay tutib kelishni buyuribdi.

Uch aka-uka uch tomonga yo'l olibdi. Shahzoda Ivan uzoq yo'l yurib, yalang daladan chiqib qolibdi. Yalanglikda bir ustun bo'lib, unga: «Kim to'g'ri yursa ochlik va sovuqqa duchor bo'ladi, kim o'ng tomonga yursa u sog' va tirik qoladi, biroq otidan ayriladi. Kim chap tomonga yursa, o'zi o'lib, oti sog' va tirik qoladi», – deb yozib qo'yilgan emish.

Ivan: «Otim nobud bo'lsa ham, o'zim tirik qolsam, vaqt kelib boshqa ot topaman» – degan o'y bilan o'ng tomonga yo'l olibdi.

U bir kun yo'l yuribdi, ikki kun yo'l yuribdi. Uchinchi kuni oldidan bahaybat bo'z bo'ri chiqibdida, Ivanning otini g'ajib tashlab ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Shahzoda yig'lab o'tirgan ekan, bo'ri uning yoniga qaytib kelib:

– Otingni yeb qo'yganim insofdan bo'lmadi. Endi yelkamga min, istagan joyingga olib boraman, – debdi.




Shahzoda Ivan qaqnusni izlab yo'lga chiqqanini aytgach,
bo'z bo'ri otdan ham tez yugurib, ko'z ochib yumguncha
shahzodani bir tosh devorning oldiga olib borib qo'yibdi.


– Shahzoda Ivan, mana shu toshdevordan oshib o'tsang,
oltin qafas ichidagi qaqnusni ko'rasan. Sen qaqnusni olgin-u,
qafasni joyida qoldir, – debdi unga bo'ri.



Shahzoda Ivan devordan oshib o'tib qaqnusni qo'lga kiritibdi, biroq oltin qafasni tashlab ketishga ko'zi qiymabdi. U qafasga yana ko'l uzatishi bilan qorovullar uyg'onib shahzodani tutib olibdi va uni podsholari huzuriga olib borishibdi.

Shahzoda Ivan podshoga qaqnusni nima maqsadda o'g'irlamoqchi bo'lganini aytib beribdi.





Podsho:

– Bir shartimni bajarsang, senga qaqnusni beraman, – deb uni oltin yolli tulporni olib kelishga jo‘natibdi.

Shahzoda Ivan bo‘z bo‘riga hamma voqeani aytib beribdi.

– Nega gapimga kirmay oltin qafasni olmoqchi bo‘lding?
– debdi bo‘z bo‘ri.

Bo‘lar ish bo‘ldi, endi seni kerakli joyga olib boraman.

Shahzoda Ivan bo‘rining ustiga minibdi, bo‘ri uni boshqa podsholikka eltibdi.

U podshoning oq toshdan qurilgan otxonasi oldida to‘xtab Ivanga:


– Bo‘laqol, Ivan, otxonaga kirib oltin yolli tulporni yetaklab chiq, biroq, oltin yuganni o‘sha yerda qoldir, olsang oqibati yomon bo‘ladi, – deb tayinlabdi.

Shahzoda yana bo‘rining gapiga qulq solmabdi. Otni yetaklab yuganni mixdan chiqarishi bilan otboqar qorovullar uni tutib olishib, podshoning huzuriga olib boribdilar.

Shahzoda Ivan podshoga bo‘lgan voqeani so‘zlab beribdi.

– Mening bir shartimni bajarsang, oltin yolli tulporni senga beraman, – debdi podsho va uni malika Go‘zal Yelenani o‘g‘irlab kelishga jo‘natibdi.





Shahzoda Ivan bo‘z bo‘rining yoniga qaytib kelib, boshiga tushgan savdolarni gapirib beribdi.


– Nega aytganimga qulqoq solmading? – debdi bo‘ri, – o‘tgan ishga salovat, endi seni kerakli joyga olib boraman.

Shahzoda Ivan bo‘rining yelkasiga minibdi. Bo‘ri uni Go‘zal Yelenaning yurtiga olib boribdi. Bo‘ri bu safar shahzodani ochiq dalada yolg‘iz qoldirib, o‘zi malikaning bog‘iga panjaradan oshib o‘tib, Go‘zal Yelena bilan birga uning oldiga qaytib kelibdi.

Shahzoda Ivan malikani bir ko‘rishda sevib qolibdi. Undan sira ham ajralgisi kelmabdi. Shunda bo‘ri malika qiyofasiga kiribdi. Ivan uni podshoga eltib, evaziga tulporni olibdi. Shundan so‘ng bo‘ri oltin yolli tulporga aylanibdi, shahzoda uni ikkinchi podshoga eltib, evaziga qaqnusni oltin qafasi bilan olibdi.

Shahzoda Ivan vafodor bo‘z bo‘riga rahmat aytib, u bilan xayrlashibdi.

Oltin yolli otga minib Go‘zal Yelena va qaqnus bilan podsho otasi huzuriga yo‘l olibdi. Podsho juda ham xursand bo‘lib, o‘g‘liga Go‘zal Yelenani nikohlab beribdi va podsholigini hadya qilibdi.





12

338736